Aksiyani o‘tkazish qoidalari
«Kreditga chegirmalar»

MUNDARIJA

1. Umumiy qoidalar;
2. Atamalar va ta’riflar;
3. Aksiya tashkilotchisi;
4. Aksiyada ishtirok etish tartibi;
5. Ishtirokchilarning huquq va majburiyatlari;
6. Tashkilotchilarning huquq va majburiyatlari;
7. Javobgarlik;
8. Nizolarni hal etish tartibi;
9. Boshqa shartlar.

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. «TBC Bank» ATBning (bundan buyon matnda — Bank) «**Kreditga chegirmalar**» nomli Aksiyasini (bundan buyon matnda — Aksiya) o‘tkazish bo‘yicha ushbu Qoidalar Aksiyada ishtirok etish shartlari va tartibini belgilaydi.
1.2. Aksiya lotereya, tavakkalchilikka asoslangan o‘yin yoki ishtirokchilari uchun mulkiy xatarlar yuzaga kelishi bilan bog‘liq boshqa tadbir hisoblanmaydi. Aksiyani o‘tkazish ishtirokchilar tomonidan ishtirok uchun biron-bir to‘lov amalga oshirilishini nazarda tutmaydi.
1.3. Ushbu Qoidalar O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367-moddasi va 369-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq ommaviy oferta hisoblanadi. Qoidalar Tashkilotchining rasmiy veb-saytida joylashtirilgan: www.tbcbank.uz.
1.4. Aksiyaning amal qilish muddati:
Aksiyaning boshlanish sanasi: 23.10.2026 y.;
Aksiyaning tugash sanasi: 31.12.2026 y. (shu kun ham kiradi).
Aksiyaning amal qilish muddati Boshlanish sanasidan Tugash sanasigacha bo‘lgan davrni (shu kunlar ham kiradi) qamrab oladi.
1.5. Aksiya O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘tkaziladi.
1.6. Ushbu Qoidalarning 2-bo‘limida belgilangan shartlarga muvofiq keladigan har qanday Mijoz Aksiya Ishtirokchisi bo‘lishi mumkin.
1.7. Bank mahsulotlari va xizmatlarini olish hamda ulardan foydalanish tartibi va shartlari Bank mahsulotlari va xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha Umumiy shartlar (bundan buyon matnda — Umumiy shartlar), shuningdek Bankning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan boshqa shartnomalar bilan tartibga solinadi.
1.8. Ushbu Qoidalarning 1.6-bandida bayon etilgan shartlarga muvofiq keladigan Bank mijozi ushbu ommaviy ofertani akseptlagan va Aksiyada ishtirok etish shartlariga roziligini bildirgan hisoblanadi.

2. ATAMALAR VA TA’RIFLAR

Aksiya	«Kreditga chegirmalar» aksiyasi
Aksiyani o‘tkazish davri	2026-yil 23-oktabrdan 2026-yil 31-dekabrgacha
Mikrokredit	Bankning O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘zini o‘zi band qilgan jismoniy shaxslarga Bankning mobil ilovasi orqali masofaviy shaklda taqdim etiladigan, milliy valyutada 100 000 000 so‘mgacha miqdordagi pul qarzidan iborat mahsuloti.
Mikroqarz	Bankning O‘zbekiston Respublikasi hududida jismoniy shaxslarga Bankning mobil ilovasi orqali masofaviy shaklda taqdim etiladigan, milliy valyutada 100 000 000 so‘mgacha miqdordagi pul qarzidan iborat mahsuloti.
Ishtirokchi	Aksiyani o‘tkazish davrida Mikroqarz yoki Mikrokredit olish uchun ariza bergan va uni ko‘rib chiqish natijalariga ko‘ra Bank tomonidan arizani ma’qullash to‘g‘risida qaror qabul qilingan, identifikatsiyadan va verifikatsiyadan o‘tgan Bank mijozi — jismoniy shaxs.
Ilova	AppStore va Play Market platformalarida smartfon qurilmalari uchun mavjud bo‘lgan TBC UZ mobil ilovasi.

3. AKSIYA TASHKILOTCHISI

3.1. Aksiyaning Tashkilotchisi Bank hisoblanadi.
3.1.1. Bankning aloqa ma'lumotlari: O'zbekiston Respublikasi, 100000, Toshkent sh., Yunusobod tumani, Buyuk Turon MFY, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 1-uy.
Telefon: +99878 777 2727, elektron pochta: contact@tbcbank.uz.

4. AKSIYADA ISHTIROK ETISH TARTIBI

4.1. Aksiyada ishtirok etish uchun Mijoz Aksiyani o'tkazish davrida Ilova (TBC UZ) orqali Mikroqarz yoki Mikrokredit olish uchun ariza yaratadi va yuboradi.
4.2. Ariza Ishtirokchi tomonidan Aksiyani o'tkazish davrida Ilovada muvaffaqiyatli boshlangan va yakunlangan hamda Bankning kredit arizasini rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablariga muvofiq bo'lishi lozim.
4.3. Arizani ko'rib chiqish natijalariga ko'ra Bank skoring natijalari asosida tegishli arizani ma'qullash yoki ma'qullashni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi.
4.4. Ishtirokchi tomonidan ushbu Qoidalarning 4.1–4.2-bandlarida ko'rsatilgan shartlar bajarilganda va Bank tomonidan tegishli ariza ma'qullangan taqdirda, Ishtirokchiga Mikroqarz yoki Mikrokredit tegishli Mikroqarz yoki Mikrokredit bo'yicha yillik 49 % (qirq to'qqiz foiz) miqdoridagi maksimal foiz stavkasiga 50 % gacha miqdorda aksiya chegirmasini (chegirma miqdori kreditga layoqatlilikni baholash natijasiga bog'liq) qo'llash orqali hisoblanadigan foiz stavkasida taqdim etiladi.
4.5. Aksiya shartlari Mikroqarz va Mikrokredit olish uchun berilgan arizalarga nisbatan tatbiq etiladi hamda Ishtirokchida ilgari rasmiylashtirilgan yoki amaldagi Bank mahsulotlari mavjudligidan qat'i nazar qo'llaniladi.

5. ISHTIROKCHILARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1. Ishtirokchi quyidagi huquqlarga ega:
5.1.1. Aksiya to'g'risidagi ma'lumotlarni ushbu Qoidalar, Umumiy shartlar va Tashkilotchi bilan tuzilgan boshqa shartnomalarda nazarda tutilgan hajmda va tartibda olish;
5.1.2. Ushbu Qoidalarga muvofiq Aksiya Ishtirokchisi maqomini olish.
5.2. Ishtirokchi quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:
5.2.1. Aksiyada ishtirok etishdan oldin ushbu Qoidalar bilan tanishib chiqish. Aksiyada ishtirok etish Ishtirokchining ushbu Qoidalar bilan tanishib chiqqanligini tasdiqlaydi va uning Qoidalar shartlariga to'liq va so'zsiz roziligini bildiradi.

6. TASHKILOTCHILARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

6.1. Tashkilotchi Aksiyani ushbu Qoidalarga muvofiq o'tkazish majburiyatini oladi.
6.2. Tashkilotchi Aksiyaning amal qilish muddatini bir tomonlama tartibda uzaytirishga haqli. Muddat uzaytirilganligi to'g'risidagi ma'lumot 1.3-bandga muvofiq saytlarda joylashtiriladi va/yoki Mijozlarga boshqa har qanday mavjud aloqa vositalari orqali, shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda, mobil ilovaga bildirishnomalar yuborish, SMS, push-bildirishnomalar va/yoki elektron pochta orqali yetkaziladi.
6.3. Aksiya Ishtirokchilarini identifikatsiya qilish va suiiste'molliklarning oldini olish maqsadida har bir Tashkilotchi Ishtirokchilarning ma'lumotlarini, shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda, anketa ma'lumotlari, hujjatlar, mijoz bilan o'zaro munosabatlar jarayonida olingan ma'lumotlarni Aksiya maqsadlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan hajmda, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda so'rash va qayta ishlashga haqli.
6.4. Tashkilotchi Aksiyani o'tkazish qoidalariga bir tomonlama tartibda o'zgartirishlar kiritish, shuningdek Aksiya to'g'risidagi qo'shimcha ma'lumotlarni 1.3-bandga muvofiq saytlarda e'lon qilish huquqini o'zida saqlab qoladi.
6.5. Mijoz pasaytirilgan foiz stavkasi taqdim etilishiga faqat Tashkilotchi tomonidan Ishtirokchining ushbu Aksiya shartlariga muvofiqligi, shuningdek Ishtirokchi tomonidan suiiste'mollik, qoidabuzarlik alomatlari mavjud bo'lgan yoki boshqa shubhali yoxud g'ayriqonuniy harakatlar sodir etilmaganligi yuzasidan tekshiruv yakunlanganidan keyingina da'vo qilishi mumkin.
Har bir Jamiyat pasaytirilgan foiz stavkasini taqdim etishni rad etishga haqli, agar uning asosli fikriga ko'ra Ishtirokchi:
– ushbu Qoidalarni buzgan bo'lsa;
– Aksiya shartlaridan insofsizlarcha foydalangan bo'lsa;
– g'ayriqonuniy foyda olishga qaratilgan harakatlarni sodir etgan bo'lsa;
– Aksiya shartlarini boshqa tarzda suiiste'mol qilgan bo'lsa.
6.6. Ushbu Qoidalarning 6.5-bandida ko'rsatilgan hollarda Bank o'z xohishiga ko'ra quyidagilarga haqli:
a) Mijozga Aksiyada keyingi ishtirok etishni rad etish;
b) Mijozni Aksiya bo'yicha pasaytirilgan foiz stavkasini olish huquqidan mahrum qilish;

v) Mijozning kelgusidagi aksiyalar, o‘yinlar va sodiqlik dasturlarida ishtirok etishini to‘xtatib turish yoki bloklash;
g) Mijozning hisob qaydnomasi amal qilishini vaqtincha yoki butunlay to‘xtatib turish.
6.7. Quyidagi harakatlar, boshqalar qatorida, Aksiya shartlarini suiiste’mol qilish sifatida ko‘rib chiqiladi:
– bir nechta shaxs yoki bitta shaxs tomonidan bir nechta hisob qaydnomasi yaratilishi;
– ro‘yxatdan o‘tishda yoki Aksiyada ishtirok etishda noto‘g‘ri, yolg‘on yoki soxta ma’lumotlar taqdim etilishi;
– ijtimoiy tarmoqlarda, internet-saytlarda, forumlarda, qidiruv tizimlarida yoxud ma’lumotni ommaviy joylashtirish va/yoki ommaviy tarqatishning boshqa usullari orqali noto‘g‘ri, g‘ayriqonuniy yoki buzib ko‘rsatilgan ma’lumotlarning tarqatilishi;
– hisob qaydnomasidan foydalanish imkoniyatining uning egasi nomidan harakat qiluvchi uchinchi shaxslarga berilishi.

7. JAVOBGARLIK

7.1. Agar Aksiyaning amal qilish muddati davomida ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan majburiyatlarning qisman yoki to‘liq bajarilmasligi texnik nosozliklar, uzilishlar, axborot yoki dasturiy tizimlardagi xatolar, shuningdek uchinchi shaxslarning, shu jumladan hamkorlar va tadbirkorlarning harakatlari (harakatsizligi) oqibatida yuzaga kelgan bo‘lsa, Tashkilotchi bunday bajarilmaslik uchun javobgar bo‘lmaydi.
7.2. Tashkilotchi Ishtirokchilarning Aksiyada ishtirok etish doirasidagi harakatlari uchun javobgar bo‘lmaydi.
7.3. Ushbu Qoidalarning 7.1-bandida ko‘rsatilgan hollarda Tashkilotchi o‘z tizimlarida, shuningdek Aksiyani amalga oshirishda ishtirok etuvchi hamkorlar yoki xizmat yetkazib beruvchilar tizimlarida yuzaga kelgan texnik nosozliklar, xatolar va boshqa uzilishlarni bartaraf etish muddatlarini mustaqil ravishda belgilashga haqli.
7.4. Agar ushbu Qoidalar bo‘yicha majburiyatlarni bajarishning imkonsizligi uchinchi shaxslarning, shu jumladan hamkorlar, yetkazib beruvchilar va boshqa kontragentlarning ushbu Aksiya shartlari buzilishiga olib kelgan qasddan yoki qasddan bo‘lmagan harakatlari yoki harakatsizligi oqibatida yuzaga kelgan bo‘lsa, Tashkilotchi bunday imkonsizlik uchun javobgarlikdan ozod etiladi.
7.5. Ushbu Qoidalar bilan tartibga solinmagan barcha masalalar Umumiy shartlar, Tashkilotchi va Mijoz o‘rtasida tuzilgan boshqa shartnomalar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq hal etiladi.

8. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

8.1. Ushbu Qoidalardan kelib chiqadigan yoki ular bilan bog‘liq barcha nizo va kelishmovchiliklar Taraflar o‘rtasidagi o‘zaro maslahatlashuvlar va muzokaralar asosida sudgacha bo‘lgan tartibda hal etiladi. Nizolarni ko‘rib chiqish uchun talabnoma (pretenziya) tartibiga rioya etish majburiy shart hisoblanadi.
8.2. Agar Taraflar ushbu Qoidalarning 8.1-bandida nazarda tutilgan tartibda nizoli masalalar bo‘yicha kelishuvga erisha olmasalar, nizo O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq Bank ro‘yxatdan o‘tgan joydagi sudda hal etiladi.

9. BOSHQA SHARTLAR

9.1. Ushbu Qoidalar Tashkilotchining saytlarida joylashtirilgan: www.tbcbank.uz.
9.2. Aksiya Ishtirokchilari yuqorida ko‘rsatilgan saytda joylashtirilgan o‘zgartirish va yangilanishlarni muntazam tekshirib borgan holda Aksiya shartlarining dolzarbligini mustaqil ravishda nazorat qilishlari shart.
9.3. Bank mijozi mavjud aloqa kanallari orqali Bankka tegishli bildirishnoma yuborib, ushbu Aksiyada ishtirok etishdan voz kechishga haqli.
9.4. Bankning affillangan shaxslari Aksiyada ishtirok etish huquqiga ega emas.